ISSIQ IQLIM SHAROITIDA TASHKIL ETILGAN TURLI MEHMONXONALARNING QIYOSIY TAHLILI

Iskandarova Guzal Tulkinovna – D.M.Sc., professor
Kalbayeva Ulbusin Shinnibay qizi – mustaqil izlanuvchi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada issiq iqlim sharoitida tashkil etilgan turli tipdagi mehmonxonalarning sanitar-gigiyenik va funksional xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Zamonaviy turizm rivojlanishi sharoitida mehmonxonalarni iqlim sharoitiga mos holda loyihalash va ekspluatatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot doirasida mehmonxona, xostel, mehmon uyi va milliy tipdagi joylashtirish obyektlarida mikroiqlim ko‘rsatkichlari, ventilyatsiya tizimi, yoritish, akustik muhit, sanitar holat va xizmat sifati baholandi. Izlanish jarayonida sanitar kuzatuv, instrumental o‘lchovlar, taqqoslama tahlil va statistik usullardan foydalanildi. Natijalarga ko‘ra, issiq iqlim sharoitida tabiiy shamollatish, issiqlikdan himoya, soyalashtirish, suv ta’minoti va energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash mehmonxona obyektlarining samaradorligini oshirishi aniqlandi. Olingan ma’lumotlar turli mehmonxona tiplarini takomillashtirish va hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *issiq iqlim, mehmonxona, xostel, mehmon uyi, mikroiqlim, ventilyatsiya, sanitariya, yoritish, turizm, qiyosiy tahlil.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РАЗЛИЧНЫХ ГОСТИНИЦ, ОРГАНИЗОВАННЫХ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА

Искандарова Гузал Тулкиновна – д.м.н., профессор
Калбаева Улбосын Шынныбай кизи – независимый исследователь
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В данной статье проведён сравнительный анализ санитарно-гигиенических и функциональных особенностей различных типов гостиниц, организованных в условиях жаркого климата. В условиях развития современного туризма важное значение приобретает проектирование и эксплуатация гостиничных объектов с учётом климатических факторов. В рамках исследования были оценены показатели микроклимата, системы вентиляции, освещение, акустическая среда, санитарное состояние и качество обслуживания в гостиницах, хостелах, гостевых домах и объектах национального типа размещения. В работе использованы методы санитарного наблюдения, инструментальных измерений, сравнительного анализа и статистической обработки данных. Результаты показали, что применение естественной вентиляции, солнцезащиты, теплоизоляции, рационального водоснабжения и энергосберегающих технологий повышает эффективность гостиничных объектов в условиях жаркого климата. Полученные данные имеют практическое значение для совершенствования различных типов гостиниц и развития региональной туристической инфраструктуры.*

Ключевые слова: *жаркий климат, гостиница, хостел, гостевой дом, микроклимат, вентиляция, санитария, освещение, туризм, сравнительный анализ.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF VARIOUS HOTELS ORGANIZED IN HOT CLIMATE CONDITIONS

Iskandarova Guzal Tulkinovna – D.M.Sc., professor
Kalbayeva Ulbosin Shinnibay kizi – independent researcher
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *This article presents a comparative analysis of the sanitary-hygienic and functional characteristics of various types of hotels organized in hot climate conditions. In the context of modern tourism development, the design and operation of accommodation facilities adapted to climatic factors are of particular importance. The study assessed microclimate indicators, ventilation systems, lighting, acoustic environment, sanitary conditions, and service quality in hotels, hostels, guest houses, and traditional accommodation facilities. The research methods included sanitary observation, instrumental measurements, comparative analysis, and statistical data processing. The results showed that the use of natural ventilation, solar protection, thermal insulation, efficient water supply, and energy-saving technologies significantly improves the performance of hotel facilities in hot climates. The findings have practical significance for improving different types of accommodation facilities and developing regional tourism infrastructure.*

Keywords: *hot climate, hotel, hostel, guest house, microclimate, ventilation, sanitation, lighting, tourism, comparative analysis.*

Mavzuning dolzarbligi. Jahonda turizm industriyasining jadal sur’atlarda rivojlanishi joylashtirish vositalariga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Turistik oqimlarning ko‘payishi mehmonxona xo‘jaligini nafaqat miqdor jihatdan kengaytirish, balki uni hududiy tabiiy-iqlim sharoitlariga mos holda takomillashtirishni ham talab etadi. Ayniqsa, issiq iqlim hukmron bo‘lgan hududlarda mehmonxonalarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarida tashqi muhit harorati, quyosh radiatsiyasi, havo quruqligi, chang‘ omillari va suv resurslarining cheklanganligi kabi xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi [1,2].

Issiq iqlim sharoiti inson organizmining fiziologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori harorat va past namlik mehmonlarning umumiy holati, mehnat qobiliyati, dam olish sifati hamda xizmatdan qoniqish darajasiga ta’sir etadi. Shu sababli bunday sharoitlarda joylashtirish obyektlarida qulay mikroiqlim yaratish, ventilyatsiya tizimlarini to‘g‘ri tashkil etish, issiqlikdan himoya qilish, sanitar-gigiyenik holatni ta’minlash va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish muhim vazifalardan hisoblanadi [3,4].

Turli tipdagi mehmonxonalar — an’anaviy mehmonxona, xostel, mehmon uyi, milliy yoki etnoturistik joylashtirish obyektlari — o‘zining qurilish yechimlari, sig‘imi, xizmat ko‘rsatish darajasi va muhandislik infratuzilmasi bilan farq qiladi. Shu bois ularning issiq iqlim sharoitidagi samaradorligi, sanitar holati va ekspluatatsion qulayligini o‘zaro taqqoslash ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada issiq iqlim sharoitida tashkil etilgan turli mehmonxonalarning mikroiqlim, yoritish, akustik muhit, sanitar holat va funksional ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi [5].

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi, havo haroratining ortishi va suv resurslariga bosim kuchayishi mehmonxona sohasida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, issiq iqlimli mamlakatlarda joylashtirish obyektlarini qurish va boshqarishda energiya sarfi, sovutish tizimlari samaradorligi, suvdan oqilona foydalanish va sanitar xavfsizlik masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [6].

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari keskin kontinental, quruq va issiq iqlim sharoitiga ega bo‘lib, yoz oylarida yuqori harorat mehmonxona obyektlarining ekspluatatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bunday vaziyatda mehmonxonalarning arxitekturaviy yechimlari, qurilish materiallari, tabiiy shamollatish imkoniyatlari, soyalashtirish tizimlari va ichki muhit ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda baholash zarur hisoblanadi [7].

Shuningdek, turli mehmonxona tiplarining iqlimga moslashuv darajasi bir xil emas. Masalan, katta mehmonxonalar markazlashgan muhandislik tizimlariga tayanadi, xostellarda aholi zichligi yuqori bo‘ladi, mehmon uylarida mahalliy resurslardan foydalanish ustunlik qiladi, milliy obyektlarda esa tabiiy konstruktiv yechimlar saqlanib qolgan. Ushbu farqlarni qiyosiy tahlil qilish eng samarali modellarni aniqlash imkonini beradi [8,9].

Shu nuqtai nazardan, issiq iqlim sharoitida tashkil etilgan turli mehmonxonalarning qiyosiy tahlili zamonaviy turizm infratuzilmasini takomillashtirish, mehmonlar uchun qulay va xavfsiz sharoit yaratish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda hududiy turizm raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega [10].

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi issiq iqlim sharoitida tashkil etilgan turli tipdagi mehmonxonalarning sanitar-gigiyenik, funksional va ekspluatatsion xususiyatlarini qiyosiy baholash, ularning yashash muhitiga ta’sir etuvchi asosiy omillarini aniqlash hamda iqlimga mos, xavfsiz va samarali joylashtirish modellarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot obyekti sifatida issiq iqlim hududlarida joylashgan turli tipdagi joylashtirish vositalari tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida quyidagi materiallardan foydalanildi: me’yoriy-texnik hujjatlar va sanitar qoidalar; obyektlarning loyiha hujjatlari va rejalari; o‘lchov asboblari (termometr, gigrometr, anemometr, lyuksmetr, shumomer); laboratoriya tahlil materiallari; statistik qayta ishlash dasturlari. Tadqiqotni olib borishda: sanitar-gigiyenik kuzatuv usuli, qiyosiy tahlil usuli, instrumental o‘lchov usuli, statistik usullaridan foydalanildi va olingan ma’lumotlarga variatsion statistika usullari orqali ishlov berildi. O‘rtacha arifmetik qiymat (M), o‘rtacha xatolik (m), nisbiy ko‘rsatkichlar (%) va ishonchlilik darajalari hisoblandi. Qo‘lanilgan materiallar va kompleks tadqiqot usullari issiq iqlim sharoitidagi turli mehmonxonalarning sanitar-gigiyenik holatini chuqur baholash, ularning ustun va zaif tomonlarini aniqlash hamda amaliyot uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Mehmonxona, xostel va mehmon uylari arxitekturarejalashtirish yechimlari, qurilish-texnik darajasi va ekspluatatsiya uslubi bo‘yicha bir-biridan tubdan farq qiladi. Ushbu farqlar O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy bazasiga muvofiq ravishda shakllantirilib, turizm infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq mehmonxonalarda gigiyena bilan bog‘liq ko‘plab muammolar mavjud bo‘lib, ularni o‘z vaqtida va samarali bartaraf etilishi mamlakatda turizm sohasini rivojlanishiga, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratilishiga va aholini yashash sharoitini ijobiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi. Mehmonxonalarda sanitariya sharoitlarining mavjud emasligi, ko‘p sonli yo‘lovchilar va takroran ishlatiladigan maishiy texnikani qo‘llanilishi bilan tavsiflanuvchi yomon ekologiyasi kasalliklarning tarqalishiga va o‘zaro zararlanishga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda Nukus shahrida 23ta

mexmonxona, 12-xostel, 3 ta o‘tov uyi va 33 ta mexmonxona uylari faoliyat olib bormoqda.

Mehmonxonalarda bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli aholining istiqomat qilishi, ularda ko‘proq xavf tug‘diradigan, ko‘proq uchraydigan, atrof-muhitga og‘irroq ta’sir ko‘rsatadigan va jamoatchilikni ko‘proq tashvishga soladigan xavfli omillarga ustuvor ahamiyat beriladi. Shunday qilib, jismoniy omillar (harorat, namlik, shovqin) va xonalardagi havo sifati (benzol, toluol, ksilol, formaldegid, CO, CO2, zamburug‘larning umumiy soni, aerob zarrachalar soni) mehmonxonalarda atrof-muhit sifatini baholash uchun ishlatiladi. Tegishli sanitariya-gigiyena sharoitlarini ta’minlash yuqumli kasalliklar tarqalishi paytida odamlar salomatligini himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Gigiyenik ko‘rsatkichlarni o‘rganish va tahlil qilish maqsadida bizlar mehmonxonalarda xizmat qiluvchi xodimlar va mehmonlar o‘rtasida bir nechta tadqiqotlar o‘tkazdik. Mehmonxonalardagi oqimlilikni yuqoriligi, odamlar bilan yaqin va tez-tez muloqotda bo‘lishni hisobga olgan holda, ishchilar nafas yo‘llari va oshqozon-ichak infeksiyalariga turli yo‘llar bilan, jumladan, ish joyida aksirish, yo‘talish va kanalarga tegish orqali duchor bo‘lishlari mumkin. Mehmonxonalardagi ish joyi yuqumli kasalliklar ta’sirini kamaytirish choralarini ko‘rish uchun muhim joy hisoblanadi.



Tahlil natijalariga ko‘ra, mehmonxona obyektlari yuqori qavatli va katta sig‘imli bo‘lib, shahar muhiti uchun samarali hisoblanadi. Xostellar iqtisodiy jihatdan maqbul va jamoaviy yashashga mo‘ljallangan. O‘tovlar milliy me’morchilik an’analariga asoslangan holda ekologik va etnoturistik ahamiyatga ega. Mehmon uylari esa kichik hajmli, oilaviy boshqaruvga mos hamda mahalliy turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval.

Ichki mikroiqlim omillarining taqqoslama tavsifi

Ko‘rsatkich	Mehmonxona	Xostel	O‘tov	Mehmon uyi
Havo harorati	20–24 °C (yil bo‘yi barqaror)	18–26 °C	10–30 °C (mavsumga bog‘liq)	19–25 °C
Nisbiy namlik	40–60 %	45–65 %	35–70 %	40–60 %
Havo harakati tezligi	0,1–0,2 m/s	0,15–0,3 m/s	0,2–0,8 m/s	0,1–0,25 m/s
Ventilyatsiya tizimi	Markazlashgan mexanik, 2–4 karra/soat havo almashinuvi	Tabiiy + mexanik, 1–3 karra/soat	Tabiiy shamollatish, 0,5–2 karra/soat	Tabiiy + mexanik, 1–2 karra/soat

Yoritish darajasi	200–300 lk (tabiiy + sun'iy)	150–250 lk (asosan sun'iy)	100–200 lk (tabiiy)	150–300 lk (tabiiy + sun'iy)
Tabiiy yoritish koeffiiyenti ts (KEO)	1,5–2,0 %	1,0–1,5 %	2,0–4,0 %	1,5–2,5 %
Shovqin darajasi	30–40 dB	40–55 dB	20–35 dB	25–40 dB
Isitish tizimi	Markaziy HVAC / avtonom	Elektr / gaz / lokal	Pechka yoki tabiiy issiqlik	Gaz, elektr yoki avtonom

Taqqoslama tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mehmonxonalarda mikroiqlim ko'rsatkichlari muhandislik tizimlari orqali eng barqaror holda ta'minlanadi. Xostellarda jamoaviy foydalanish sababli namlik va shovqin darajasi nisbatan yuqoriroq bo'ladi. O'tovlarda mikroiqlim asosan tashqi muhit va tabiiy shamollatishga bog'liq bo'lib, mavsumiy o'zgaruvchanlik yuqori. Mehmon uylari esa tabiiy va mexanik tizimlar uyg'unligi orqali qulay yashash muhitini shakllantiradi.

2-jadval.

Sanitar-gigiyenik sharoitlar va talablarning taqqoslanishi

Yo'nalish	Mehmonxona	Xostel	O'tov	Mehmon uyi
Sanitariya xonalari	Har bir xonaga 1 ta individual sanitar tugun	Har 6–10 o'ringa 1 ta umumiy sanitar tugun	Asosiy yashash hududidan 15–30 m masofada alohida sanitar blok	Har 2–3 xonaga 1 ta umumiy yoki individual sanitar tugun
Tozalash rejimi	Kundalik, kuniga 1–2 marta	Kundalik, yuqori yuklamada 2–3 marta	Rejali, haftasiga 2–3 marta	Kundalik, kuniga 1 marta
Dezinfeksiya ishlari	Oyiga 1–2 marta rejali	Haftasiga 1 marta yoki zaruratga ko'ra kuchaytirilgan	Mavsum boshida va mavsum yakunida	Oyiga 1 marta rejali
Chiqindilarni yig'ish va olib chiqish	Markazlashgan tizim, har kuni	Markazlashgan tizim, har kuni	Mahalliy yig'ish, 2–3 kunda 1 marta	Mahalliy yoki munisipal, har 1–2 kunda
Sanitar nazorat	Doimiy ichki va tashqi tekshiruv	Doimiy, yuqori foydalanish sababli kuchaytirilgan	Mavsumiy tekshiruv	Qisman yoki davriy nazorat
Ichimlik suvi ta'minoti	Markaziy tarmoq, uzluksiz	Markaziy tarmoq	Quduq, rezervuar yoki tashib keltiruvchi	Markaziy yoki avtonom manba
Kanalizatsiya tizimi	Markaziy kanalizatsiya	Markaziy kanalizatsiya	Septik yoki mahalliy tizim	Markaziy yoki septik
Hasharot va kemiruvchilarga qarshi choralar	Doimiy profilaktika, chorakda 1 marta	Doimiy profilaktika, oyiga 1 marta	Mavsumiy profilaktika	Davriy profilaktika
Gigiyenik komfort darajasi	Yuqori	O'rtacha	O'rtacha–past	O'rtacha–yuqori

Tahlil natijalariga ko'ra, mehmonxonalarda sanitar-gigiyenik talablar eng yuqori darajada ta'minlanib, individual sanitar tugunlar, markazlashgan chiqindi tizimi va doimiy nazorat mavjud. Xostellarda umumiy foydalanish maydonlari sababli dezinfeksiya va tozalash ishlari kuchaytirilgan tartibda amalga oshiriladi. O'tovlarda sanitar infratuzilma mavsumiy va mahalliy sharoitlarga bog'liq bo'lib, avtonom yechimlar ustunlik qiladi. Mehmon uylari esa kichik hajmli obyekt sifatida sanitar talablarni nisbatan sodda, ammo samarali shaklda ta'minlaydi.

3-jadval.

Gigiyenik ustunliklar va cheklovlarning taqqoslama tahlili

Ob'yekt turi	Gigiyenik ustunliklari	Gigiyenik cheklovlari
Mehmonxona	Yuqori sanitar komfort; 20–24 °C barqaror mikroiqlim; 40–60 % nisbiy namlik; individual sanitar tugunlar; kundalik tozalash va doimiy dezinfeksiya; shovqin darajasi past (30–40 dB)	Qurilish va ekspluatatsiya xarajatlari yuqori; muhandislik tizimlariga yuqori bog'liqlik; energiya sarfi katta (150–300 kVt·soat/m^2 yil)

Xostel	Arzon joylashuv; maydondan samarali foydalanish; qisqa muddatli yashash uchun qulay; markazlashgan sanitar nazorat; jamoaviy infratuzilma	Aholi zichligi yuqori (1 xonada 4–12 kishi); namlik 45–65 % gacha ortishi mumkin; shovqin yuqori (40–55 dB); infeksiya tarqalish xavfi yuqoriroq
O‘tov	Tabiiy ventilyatsiya; ekologik toza materiallar; havo almashinuvi yaxshi; tabiiy yoritish yuqori; past qurilish ta’siri; rekreatsion va psixologik komfort	Mavsumiy foydalanish; harorat 10–30 °C oralig‘ida keskin o‘zgaradi; sanitar bloklar tashqi hududda; iqlim ta’siriga yuqori bog‘liq; izolyatsiya darajasi past
Mehmon uyi	Oilaviy muhit; past zichlik; tabiiy va sokin muhit; sanitar nazoratni oson tashkil etish; mahalliy ovqatlanish va shaxsiy yondashuv	Xizmatlar ko‘lami cheklangan; professional boshqaruv doim ham mavjud emas; ventilyasiya va sanitariya darajasi obyektga qarab farq qiladi; sig‘imi kichik

Taqqoslama tahlil shuni ko‘rsatadiki, mehmonxona obyektlari gigiyenik jihatdan eng yuqori standartlarga ega bo‘lsa-da, katta iqtisodiy xarajat talab qiladi. Xostellar iqtisodiy samaradorligi bilan ajralib turadi, ammo yuqori zichlik sabab sanitar xavf omillari ko‘proq kuzatiladi. O‘tovlar ekologik va tabiiy muhit yaratishi bilan ahamiyatli, biroq mavsumiy va iqlimiy cheklovlarga ega. Mehmon uylari esa oilaviy muhit va past zichlik bilan qulay bo‘lib, xizmatlar hajmi cheklanganligi bilan tavsiflanadi. Natijada mehmonxona, xostel, o‘tov va mehmon uylari har biri o‘ziga xos qurilish-regalashtirish, mikroiqlim va sanitar-gigiyenik xususiyatlarga ega. Ularni loyihalash va ekspluatatsiya qilishda foydalanish maqsadi, yashovchilar zichligi hamda mavsumiy omillarni inobatga olish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan joylashtirish vositalari turli funksional maqsad, xizmat darajasi va ekspluatatsiya xususiyatlariga ega. O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va shaharsozlik me’yorlariga ko‘ra mehmonxona, xostel va mehmon uylari alohida tipologik guruhlarga ajratiladi hamda ularni rejalashtirish, qurish va foydalanish jarayonlarida turlicha talablar qo‘yiladi.

Ilmiy ishda taqdiqot ob’yekti sifatida tanlab olingan ob’yektlarga quyidagilar kiradi: Mehmonxonalar:

JPEK-JOLI-INN mehmonxonasi, Nukus shahri, Xalqlar Do‘stligi MFY, Ipak yo‘li ko‘chasi 4 –uyda joylashgan bo‘lib, undagi xonalar soni-26, o‘rinlar soni esa -50 tani tashkil etadi. Tadqiqot 26 ta xonali, jami 50 o‘ringa mo‘ljallangan bir qavatli mehmonxona binosida o‘tkazildi. Mehmonxonada yashash xonalari, qabulxona, ma’muriy xonalar, yo‘laklar va sanitariya-texnik xonalar mavjud. Tadqiqot ishlari mehmonxona odatiy ish rejimi sharoitida, kunduzgi vaqtda amalga oshirildi. Mikrobiologik baholash maqsadida mehmonxona xonalari va umumiy foydalanish joylarida havodan namunalar olindi. Havoning umumiy mikrob ifloslanish darajasi KOYe/m^3 birligida aniqlandi.

4-jadval.

Havoning mikrobiologik ko‘rsatkichlari

Namuna olingan joy	**Umumiy mikrob soni, KOYe/m^3**	**Ruxsat etilgan me’yor, KOYe/m^3**	**Baholash**	**Namuna olingan joy**	**Umumiy mikrob soni, KOYe/m^3**
Yashash xonalari	1 200	≤ 2 000	Sanitar me’yorga mos	Yashash xonalari	1 200
Qabulxona	1 450	≤ 2 000	Sanitar me’yorga mos	Qabulxona	1 450
Yo‘laklar	1 600	≤ 2 000	Sanitar me’yorga mos	Yo‘laklar	1 600
Ovqatlanish zali	1 350	≤ 2 000	Sanitar me’yorga mos	Ovqatlanish zali	1 350
Sanitar tugun oldi hududi	1 700	≤ 2 000	Sanitar me’yorga mos	Sanitar tugun oldi hududi	1 700
Xizmat ko‘rsatish xonasi	1 500	≤ 2 000	Sanitar me’yorga mos	Xizmat ko‘rsatish xonasi	1 500

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, barcha tekshirilgan funksional hududlarda havodagi umumiy mikrob miqdori ruxsat etilgan ≤ 2 000 KOYe/m^3 sanitar me’yordan oshmagan. Eng past ko‘rsatkich yashash xonalarida (1 200 KOYe/m^3), eng yuqori ko‘rsatkich esa sanitar tugun oldi hududida (1 700 KOYe/m^3) qayd etildi. Bu holat odamlar harakati zichligi va namlik darajasi bilan izohlanadi. Umuman olganda,

ob’yektda ventilyasiya, tozalash va dezinfeksiya tadbirlari samarali tashkil etilgani sabab havoning mikrobiologik holati qoniqarli deb baholanadi. Olingan natijalar havo muhitining sanitariya holati qoniqarli ekanligini ko‘rsatdi. Sanitariya-gigiyena holatini chuqur baholash maqsadida eshik tutqichlari, mebel yuzalari va sanitariya xonalaridan tampon usulida namunalar olindi.

5-Jadval.

Yuzalarning mikrobiologik holati

Namuna joyi	Mikroblar soni, KOYe/sm^2	Ruxsat etilgan me’yor, KOYe/sm^2	Baholash
Eshik tutqichlari	85	≤ 100	Sanitar me’yorga mos
Mebel yuzalari	60	≤ 100	Sanitar me’yorga mos
Sanuzel devorlari	95	≤ 100	Sanitar me’yorga mos
Stol yuzalari	70	≤ 100	Sanitar me’yorga mos
Pol qoplamasi	78	≤ 100	Sanitar me’yorga mos
Qabulxona stoykasi	88	≤ 100	Sanitar me’yorga mos

O‘tkazilgan mikrobiologik tekshiruv natijalariga ko‘ra, barcha tadqiq etilgan yuzalarda mikroblar soni belgilangan ≤ 100 KOYe/sm^2 sanitar me’yordan oshmagan. Eng past ko‘rsatkich mebel yuzalarida (60 KOYe/sm^2), eng yuqori ko‘rsatkich esa sanuzel devorlarida (95 KOYe/sm^2) aniqlandi. Bu holat nam muhit va intensiv foydalanish bilan bog‘liq hisoblanadi. Eshik tutqichlari va qabulxona stoykasi kabi ko‘p tegiladigan yuzalarda ham ko‘rsatkichlar me’yor doirasida bo‘lib, dezinfeksiya ishlari muntazam amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Umuman, ob’yekt yuzalarining sanitar-gigiyenik holati qoniqarli deb baholanadi.

Olingan mikroiqlim va mikrobiologik ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mehmonxona binolarida yashovchilar uchun qulay mikroiqlim sharoiti yaratilgan. Havo muhiti va yuzalarning sanitariya holati amaldagi sanitariya-gigiyena talablariga javob beradi. 26 xonali, 50 o‘rinli bir qavatli mehmonxonada o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida mikroiqlim omillari hamda havo va yuzalarning sanitariya holati me’yoriy darajada ekanligi aniqlandi. Bu holat mehmonxonada yashovchilarning sog‘lig‘ini saqlash va qulay yashash sharoitini ta’minlashda ijobiy ahamiyatga ega.

Xulosa. Issiq iqlim sharoitida tashkil etilgan turli mehmonxonalarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, bunday hududlarda mehmonxona faoliyatini samarali tashkil etishda arxitektura yechimlari, muhandislik tizimlari va servis sifatining o‘zaro uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tabiiy shamollatish, quyosh nuridan himoya qiluvchi fasad elementlari, energiya tejovchi sovutish tizimlari hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish mehmonxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan mehmonxonalarda ekspluatatsiya xarajatlari kamayishi, mehmonlar uchun qulaylik darajasi esa ortishi aniqlandi. Milliy me’moriy uslub va mahalliy qurilish materiallarini qo‘llash esa nafaqat estetik jozibadorlikni ta’minlaydi, balki iqlim sharoitiga moslashuvchanlikni ham kuchaytiradi. Umuman olganda, issiq iqlim sharoitida mehmonxona loyihalash va boshqaruvida innovatsion yondashuvlar, ekologik barqarorlik tamoyillari hamda mijoz ehtiyojlariga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish usullarini joriy etish raqobatbardoshlikni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Kelgusida ushbu sohada “yashil texnologiyalar”, raqamli boshqaruv tizimlari va mahalliy turistik imkoniyatlarni integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Скабеева Л. И. Безопасность и качество гостиничных услуг в современных условиях //Сервис plus. – 2021. – Т. 15. – №. 3. – С. 43-50.

2. Новгородова Т. А., Богданова О. С. Санитарно-гигиеническая безопасность предприятий гостиничного бизнеса как успешный маркетинговый и управленческий метод отелей //Туристско-рекреационный потенциал и особенности развития туризма и сервиса. – 2018. – С. 153-163.

3. Шукуров И., Максумов Ш. Санитария и Гигиена.

4. Юрова С. И. Профессиональная ориентация и адаптация персонала на предприятии «Учебная гостиница при Томском Индустриальном техникуме». – 2016.

5. Сохтаев М. К., Арипова Ш. А. Методы оценки конкурентоспособности гостиницы //Современный менеджмент и управление: тенденции и перспективы развития. – 2018. – С. 296-299.

6. Карабанова И. В., Карабанова М. А. Оценка качества обслуживания в гостиницах //Экономика. сервис. туризм. культура (эстк-2017): XIX Международная научно-практическая конференция: сборник статей/Алт. гос. техн. ун-т им. ИИ Ползунова.–Барнаул: Изд-во АлтГТУ, 2017.–147 с. ISBN 978-5-7568-1245-9. – 2017. – С. 43.

7. Цепковская Т. А. Анализ видов гостиниц //актуальные вопросы развития современного общества. – 2019. – С. 451-453.

8. Котелевская Ю. В., Нехайчук Д. В. Оценка качества гостиничных услуг на предприятии (на примере ооо" дерекой") //Актуальные вопросы управления устойчивым развитием территорий: современные тренды и перспективы. – 2019. – С. 81-91.

9. Ефимов В. И., Краснова Е. А., Маврина Н. Ф. Классификация как инструмент оценки качества услуг в гостинице //Индустрия туризма: возможности, приоритеты, проблемы и перспективы. – 2020. – Т. 18. – №. 1. – С. 119-128.

10. Тухватуллина Л. Р. Гигиена труда работников сферы обслуживания //изучение параметров суточного мониторирования артериального давления у больных артериальной гипертензией с синдром обструктивного апноэ сна. – 2018. – С. 761.